

MAXFIYLIK SIYOSATI

I. ASOSIY TUSHUNCHALAR

Ushbu maxfiylik siyosatida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

veb-sayt – umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan «IT-Park Uzbekistan» faoliyati va xizmatlar axborot manbai bo'lib, elektron manzili: outsources.gov.uz/en;

veb-sayt operatori – veb-saytga egalik qiluvchi (mulkdor) va shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshiruvchi “Dasturiy maxsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ (keyingi o'rinlarda – “IT-Park”) yuridik shaxsi;

foydalanuvchilar – veb-saytdan o'z ehtiyojlari uchun foydalanadigan va/yoki veb-saytda maxsus aloqa shaklini to'ldirgan va yuborgan jismoniy va yuridik shaxslar;

shaxsga doir ma'lumotlar – foydalanuvchi bilan bog'liq va uni aniqlash yoki unga murojaat qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan har qanday ma'lumotlar;

shaxsga doir ma'lumotlar maxfiylik siyosati (keyingi o'rinlarda – “Maxfiylik siyosati”) – foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlari va maxfiy ma'lumotlari bilan ishlash tartibini tartibga soluvchi hujjat;

aloqa shakli – veb-sayt operatori bilan bog'lanish usuli bo'lib, u Foydalanuvchidan qabul qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni belgilangan formatda shakllantirish imkoniyatini beradi: to'ldirilishi zarur bo'lgan maxsus maydonlar to'plami va «Yuborish» tugmasi;

tadbirlar – IT-Park va/yoki hamkorlar tomonidan IT-Parkning rezident kompaniyalari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishlab chiqariladigan axborot texnologiyalari mahsulotlarining xalqaro yarmarka va ko'rgazmalari, IT-Park rezidentlari ishtirok etadigan xalqaro seminarlar, konferensiyalar va respublikada hamda xalqaro ko'lamda o'tkaziladigan boshqa tadbirlar.

II. UMUMIY QOIDALAR

1. Maxfiylik siyosati veb-sayt operatorining rasmiy hujjati bo'lib, outsources.gov.uz/en domen nomida joylashgan veb-sayt funksiyalari, ma'lumotlaridan va xizmatlaridan foydalan holda foydalanuvchilar haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash va himoya qilish tartibini belgilaydi.

2. Maxfiylik siyosatining maqsadi foydalanuvchining shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlash jarayonida uning huquq va erkinliklarini, shu jumladan shaxsga doir hayot daxlsizligini, ruxsatsiz kirish va oshkor etilishdan himoya qilishdan iborat bo'lib maxfiylikni saqlash veb-sayt operatorining muhim vazifasi hisoblanadi.

3. Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va saqlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- murojaatlarga javob berish va so'ralgan ma'lumotlarni taqdim etish;
- tadbirlar, dasturlar va xizmatlar uchun arizalarni qayta ishlash;
- hamkorlik va biznes moslashuvini ta'minlash;
- yangiliklar, axborot byulletenlari va reklama materiallarini yuborish;
- hisobot, tahlil va xizmatlarni yaxshilash uchun ma'lumot to'plash.

4. Maxfiylik siyosati shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash usulini — shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash, yozib olish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), olish, ulardan foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish), shaxssizlashtirish, blokirovka qilish, o'chirish va yo'q qilishni o'z ichiga olgan avtomatlashtirilgan vositalar yordamida yoki ularsiz amalga oshiriladigan har qanday harakatlar (operatsiyalar) yoki harakatlar (operatsiyalar) to'plamini tavsiflaydi.

5. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq munosabatlar hamda veb-sayt foydalanuvchilari haqidagi ma'lumotlar ushbu Maxfiylik siyosati, veb-sayt operatorining boshqa normativ-huquqiy hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

6. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash qonuniy va adolatli asosda, oqilona va vijdonan amalga oshiriladi hamda quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlari va usullarining qonuniyligi;
- shaxsga doir ma'lumotlarning aniq va ishonchli bo'lishi;
- shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi va himoyalanganligi;
- shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligi.

7. Ushbu Maxfiylik siyosati foydalanuvchilar haqidagi shaxsiy ma'lumotlar va shaxsni aniqlaydigan ma'lumotlarni, shuningdek, ular bilan bog'liq boshqa har qanday ma'lumotlarni qayta ishlashni tartibga soladi.

III. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI YIG'ISH

8. Foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlash ularning roziligi bilan amalga oshiriladi. Kompaniya Foydalanuvchi veb-sayt operatoriga murojaat qilgan har qanday vaqtda undan qo'shimcha shaxsga doir ma'lumotlarni so'rash huquqiga ega.

9. Veb-sayt operatori shaxsga doir ma'lumotlardan maxfiylik siyosatiga muvofiq foydalanishi, ushbu ma'lumotlarni o'z mahsulotlari, xizmatlari va axborot tarkibini (kontentni) ko'rsatish va takomillashtirish maqsadida boshqa ma'lumotlar bilan birlashtirishi mumkin.

10. Veb-sayt operatori veb-sayt foydalanuvchisi haqida quyidagi turdagi ma'lumot va axborotlarni yig'ish huquqiga ega:

- ismi va familiyasi;
- tug'ilgan sanasi;
- LinkedIn profili;
- jismoniy yoki yuridik manzili;
- ish joyi va lavozimi;
- telefon raqami;
- elektron pochta manzili;
- muloqot tili afzalligi;
- xizmat va/yoki tadbirlarga qiziqish;
- yuklanadigan hujjatlardagi (CV, kompaniya profillari) ma'lumotlar;
- aloqa va marketing ma'lumotlari: axborot byulleteniga obuna, "Qayerdan eshitdingiz?" savoliga javoblar.

11. Shaxsga doir ma'lumotlar, shuningdek, foydalanuvchilar tomonidan xizmatlar yoki ular haqidagi ma'lumotlarni olish maqsadida qo'shimcha tarzda taqdim etilgan ma'lumotlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

IV. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI SAQLASH VA ULARDAN FOYDALANISH

12. Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari elektron tashuvchilarda saqlanadi va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida qayta ishlanadi, qonuniy talablarga rioya qilish uchun shaxsiy ma'lumotlarni avtomatlashtirilmagan holda qayta ishlash zarur bo'lgan hollar bundan mustasno.

13. Yig'ilgan shaxsga doir ma'lumotlar foydalanuvchilarga bildirishnomalar (yangiliklar va turli tadbirlar haqida) yuborish imkonini yaratadi. Bu veb-sayt operatoriga xizmatlar, kontent va kommunikatsiyalarni yaxshilashga yordam beradi.

14. Veb-sayt operatori foydalanuvchilarga muhim bildirishnomalarni yuborish, shuningdek ularning Administrator xizmatlari yoki yechimlariga bo'lgan qiziqishini tasdiqlash maqsadida shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega.

15. Veb-sayt operatori veb-sayt foydalanuvchilarining shaxsga doir ma'lumotlaridan ichki maqsadlarda foydalanishi mumkin, jumladan: audit o'tkazish, statistika yuritish, ma'lumotlarni tahlil qilish va turli tadqiqotlar o'tkazish, veb-saytda joylashtirilgan yechim va xizmatlarni yaxshilash hamda foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqani rivojlantirish.

16. Veb-sayt operatori shaxsga doir bo'lmagan, aniq bir shaxsni (foydalanuvchini) to'g'ridan to'g'ri aniqlash imkonini bermaydigan ma'lumotlarni ham yig'adi.

17. Veb-sayt operatori bunday ma'lumotlarni istalgan maqsadlarda yig'ish, ulardan foydalanish, uzatish va oshkor etish huquqiga ega. Ushbu ma'lumotlar Veb-saytning qaysi bo'limlari Foydalanuvchilar uchun ko'proq qiziqarli ekanligini aniqlash uchun yig'iladi va qo'llaniladi.

18. Agar shaxsga doir bo'lmagan ma'lumot shaxsga doir ma'lumot bilan birlashtirilsa, u birlashtirilgan holatda bo'lgan vaqtgacha shaxsga doir ma'lumot sifatida qaraladi.

19. Veb-sayt operatori barcha foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlaridan faqat ularni yig'ishning avvaldan belgilangan maqsadlariga muvofiq holda, shaxsga doir ma'lumotlarning zarur darajada himoyalaniishini ta'minlagan holda foydalanilishini kafolatlaydi.

V. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI UZATISH

20. Foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlari uchinchi shaxslarga uzatilmaydi, bundan maxfiylik siyosatida bevosita nazarda tutilgan holatlar mustasno.

21. Foydalanuvchining shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlash muddatsiz, istalgan qonuniy usulda, jumladan shaxsga doir ma'lumotlarning axborot tizimlarida, avtomatlashtirish vositalari qo'llangan yoki qo'llanmagan holda amalga oshiriladi.

22. Foydalanuvchi ushbu maxfiylik siyosatida ko'rsatilgan maqsadlar uchun veb-sayt operatorining shaxsga doir ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga uzatish huquqiga rozilik bildiradi.

23. Foydalanuvchining shaxsga doir ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi vakolatli organlarining so'rovlariga faqat qonunchilikda belgilangan asoslar va tartibda taqdim etilishi mumkin.

24. Veb-sayt operatori keyinchalik foydalanuvchilarning so'rovlariga binoan xizmat va yechimlar ko'rsatishda veb-sayt operatori bilan hamkorlik qiluvchi hamkorlarga va tadbir tashkilotchilariga muayyan shaxsga doir ma'lumotlarni taqdim etish huquqiga ega. O'z navbatida, bunday hamkorlar foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlashga majburlar.

25. Veb-sayt operatori foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlarini qonun, sud tartibi, sud jarayoni davomida va/ yoki davlat organlarining, jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning talabiga binoan oshkor qilishi mumkin. Shuningdek, veb-sayt operatori shaxsga doir ma'lumotlar va foydalanuvchi haqida ma'lumotlarni davlat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash yoki boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega holatlar zarur bo'lganda oshkor etish huquqiga ega.

VI. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI O'ZGARTIRISH VA TO'LDIRISH

26. Foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlarini o'zgartirish va to'ldirish veb-sayt operatoriga murojaat qilingan paytdan boshlab uch kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

27. Haqiqatga mos kelmaydigan foydalanuvchi shaxsga doir ma'lumotlarini o'zgartirish va to'ldirish bunday nomuvofiqlik aniqlangan zahoti amalga oshiriladi.

VII. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI YO'Q QILISH

28. Foydalanuvchining shaxsga doir ma'lumotlari quyidagi hollarda yo'q qilinadi: foydalanuvchining o'z ma'lumotlarini o'chirish bo'yicha so'rovi bilan; veb-sayt operatorining tashabbusi bilan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan hollarda.

29. Veb-sayt, interaktiv xizmatlar, elektron pochta xabarlar va veb-sayt operatorining nomidan yuboriladigan boshqa har qanday kommunikatsiyalar cookie-fayllardan foydalanishi mumkin. Bunday texnologiyalar veb-sayt operatoriga foydalanuvchilarni yaxshiroq tushunishga, qaysi bo'limlar tashrif buyurilganini aniqlashga, reklama va qidiruv tizimlari samaradorligini baholashga yordam beradi. Foydalanuvchi o'z brauzeri yoki mobil qurilmasi sozlamalarida cookie-fayllarni o'chirib qo'yishi mumkin, biroq cookie o'chirilsa, veb-saytning ayrim funksiyalari ishlamasligi mumkin.

30. Ba'zi ma'lumotlar avtomatik tarzda yig'iladi va statistika fayllarida saqlanadi. Bular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: Internet-protokol manzili (IP-manzil), brauzer turi va tili, internet-provayder haqidagi ma'lumotlar, yo'naltiruvchi va chiqish sahifalari, operatsion tizim haqida ma'lumotlar, sana va vaqt belgisi, tashriflar haqidagi ma'lumotlar. Ushbu ma'lumotlar tendensiyalarni tushunish va tahlil qilish, veb-saytni boshqarish va foydalanuvchi xatti-harakatlarini o'rganish uchun qo'llaniladi. Veb-sayt operatori ushbu ma'lumotlardan marketing maqsadlarida foydalanishi mumkin.

VIII. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH

31. Veb-sayt operatori foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilish uchun huquqiy, tashkiliy, ma'muriy, texnik va jismoniy xavfsizlik choralarini ko'radi,

ularni noqonuniy yoki tasodifiy kirish, yo'q qilish, o'zgartirish, bloklash, nusxalash, tarqatish va boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qiladi.

32. Veb-sayt operatorining ayrim yechimlari va xizmatlaridan (fikir-mulohazalar, xabarlar va boshqalar) foydalanilganda taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlar uchinchi shaxslar tomonidan o'qilishi, yig'ilishi yoki ishlatilishi mumkin. Foydalanuvchilar bunday hollarda o'zlari taqdim etgan shaxsga doir ma'lumotlar uchun mustaqil ravishda javobgardirlar (masalan, agar Foydalanuvchi forumda o'z ismi va elektron pochta manzilini ko'rsatsa, bunday ma'lumot jamoatchilikka ochiq hisoblanadi). IT-Park bunday funksiyalardan foydalanishda ehtiyotkor bo'lishni tavsiya qiladi.

IX. YAKUNIY QOIDALAR

33. Maxfiylik siyosatida yoritilmagan barcha masalalarda veb-sayt operatori O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga amal qiladi.

34. Veb-saytga tashrif buyurib, o'z shaxsga doir ma'lumotlari va axborotini taqdim etgandan so'ng rozilik kartochkasini belgilagan foydalanuvchi ushbu maxfiylik siyosati shartlariga rozilik bildirgan hisoblanadi.

35. Veb-sayt operatori ushbu maxfiylik siyosatiga o'z xohishiga ko'ra istalgan vaqtda o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish huquqiga ega, bu esa Foydalanuvchi shaxsga doir ma'lumotlariga ruxsatsiz kirishni oldini olish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Maxfiylik siyosatiga kiritilgan o'zgarishlar to'g'risidagi bildirishnoma yangilangan siyosat bilan birga veb-saytga joylashtiriladi.